

**Musallam Abdujabbarova**

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti  
"Ijtimoiy fanlar" kafedrasi mudiri,  
pedagogika fanlari nomzodi, dotsent  
E-mail: abdujabbarovamusallam@gmail.com*

## **ALISHER NAVOIY IJODIDA SO'Z SAN'ATI VA BADIY TAFAKKUR MASALALARI**

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada buyuk alloma Alisher Navoiyning merosida so'z san'ati va badiiyati xususida fikr-mulohazalar bildirilgan. Badiiy adabiyotning inson faoliyatini yoritishda Alisher Navoiyning o'ziga xos uslubda she'rlar yaratganligi ifodalangan.*

***Kalit so'zlar:** Alisher Navoiy, adabiy meros, badiiyat, so'z san'ati.*

### **THE ART OF THE WORD AND ISSUES OF ARTISTIC THINKING IN THE WORKS OF ALISHER NAVOI**

***Abstract.** This article explores the issues of the art of the word and artistic expression in the literary heritage of the great scholar and poet Alisher Navoi. It highlights Navoi's distinctive poetic style and his unique contribution to the representation of human experience and activity in artistic literature.*

***Keywords:** Alisher Navoi, literary heritage, artistic expression, art of the word.*

Bugun o'zbek xalqi tarixi va adabiyotida insoniyat ma'naviy taraqqiyotiga beqiyos hissa qo'shgan ulkan mutafakkir shaxslarning me'rosiy manbalarini o'rganish alohida muhim o'rin tutadi. So'z san'ati, badiiy tafakkur masalasida Alisher Navoiyning ijodi va badiiy merosi benihoya ko'p bo'lib, bu merosni o'rganish uchun hali ko'p asrlar kerak bo'ladi. U adabiyot, san'at, tilshunoslik, tarix, falsafa, diniy ta'limotlar, tarjima san'atida ham o'z o'rniga ega alloma hisoblanadi. Birgina Alisher Navoiyning yuksak badiiyati xususida ko'plab mulohazalar yuritish mumkin. Buyuk mutafakkirlar ilm-u ma'rifatning, fan va madaniyatning qay bir sohasida faoliyat olib bormasinlar o'zlari yashagan xalqning, millatning faxr-u

iftixori bo'lib qoladilar. Zotan, “Navosoz ulusning navobaxshi bo'l” deb kuylagan ulkan so'z san'atkorining xalqimizning madaniy hayoti va taraqqiyoti tarixida katta ijodiy merosga ega ekanini butun dunyo e'tirof etmoqda [1].

Mutafakkir degan nom quvvayi hofizasi o'tkir, tafakkuri teran, falsafiy fikrlash tarzi keng, chuqur mushohada salohiyatiga ega bo'lgan iqtidorli insonlarga nisbatan ishlatiladi. Alisher Navoiyni mutafakkir shoir deb ulug'lashimizning sababi ham shunda. Shu bois, uni “Biz bu ulug' zotni avliyo desak, u avliyolarning avliyosi, mutafakkir desak mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak, shoirlarning sultonidir” [2, 47-b], – deb sharaflangan. Alisher Navoiyning she'riyatga bo'lgan qiziqishi bolalik chog'larida o'tkazilgan mushoiralarda uyg'ongan. U o'zining “Majolisun nafois” asarida, uch-to'rt yoshlarida otasi uyushtirgan mushoirada o'tirgan vaqtda mashhur shoir Qosim Anvarning bir kichik baytdan iborat g'azalini yodlaganligini qayd qilgan. Bunday iqtidor egalarining hali bolaligidan ma'naviy kamolga yetganlarini Alisher Navoiyning yetti-sakkiz yoshidan she'r yoza boshlaganidan, 14–15 yoshida elga tanilganidan bilsak bo'ladi. Manbalarda ko'rsatilishicha, “Furqatingda za'faron uzra to'karman lolalar”, “Labing ko'rgach, iligim tishlarim har dam tahayyurdim” misralari bilan boshlanuvchi g'azalini Navoiy 14–15 yoshida yozgan ekan. Xondamirning guvohlik berishicha, ustoz Lutfiy sakkiz yoshdagi Alisherning:

Orazin yopqoch ko'zumdin sochilur har lahza yosh,

Bo'ylakim paydo bo'lur yulduz, nihon bo'lg'och quyosh.

Matlasi bilan boshlanuvchi g'azalini eshitib, lol qolganini va uning turkiy va forsiyda bitgan ikki ming baytdan tashkil topgan shu g'azal bilan almashtirishga rozi ekanini aytadi. Navoiy 24 yoshidayoq “Badoye'-ul bidoya” (“Boshlang'ich ijodlar”) nomli birinchi devonini muxlislari tomonidan tuzilganini yaxshi bilamiz. Shu o'rinda “Navodirun nihoya” (“Eng nodir she'rlar”) nomli

ikkinchi devonning yaratilishi ham benazir ijodkorning sermahsul ijod namunalaridan sanaladi.

Navoiy badiiyatining gultoji hisoblangan, o'zbek adabiyoti tarixida katta burilish yasagan "Xamsa" asarini 1483–1485 (ikki yil) yozib bitilishi uni butun jahonga mashhur qildi.

Ma'lumki, "Xamsa" yozish Sharq xalqlari adabiyotida o'ziga xos an'anaga aylangan va bu sohada qirqqa yaqin qalam sohibi o'z ijodida sinab ko'rgan. Faqatgina Nizomiy Ganjaviy, Amir Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiylarning asarlari betakror asarlar sifatida tan olingan. Navoiy "Xamsa" sining qadr-u qimmatini shundaki, u turkiy tilda yozilgan edi. Navoiyning o'zi:

Forsiy o'ldi chu alarg'a,

Turkiy ila qilsam ani ibtido.

Forsiy el topti chu xursandlik,

Turk dog'i topsa barur mandlik, – deydi.

"Xamsa"dagi besh dostonlar – "Hayrat-ul abror" ("Yaxshilar hayrati") da fozil jamiyat va barkamol inson, insonni inson qilib ko'rsatadigan ezgu fazilatlar, yaxshilik va yomonlik, savob-u uvol, ezgulik va yovuzlik inson taqdiri orqali ko'rsatilsa, "Farhod va Shirin"da vafodorlik va qahramonlikning hayotiy tasviri kuylanadi, "Layli va Majnun"da esa ikki yoshning bir-biriga yozgan maktublarida sadoqat va ishonch tuyg'ularini tengsiz muqoyasalarda ifodalaydi, garchand ikki yosh jismonan bir-birlariga yetisholmasalar-da doston muhabbatning yorqin tasviri bo'lib o'quvchining yuragiga yetib boradi. "Sab' ai sayyor" sarguzasht syujetlar asosida axloqiy-ramziy pardada yozilgan doston sifatida, "Saddi Iskandariy"da shoh Iskandar o'limi oldidan o'z onasiga maktub yozib, shunday iltimos qiladi: "Va lekin meni tobutga yotqizgan paytingizda yoqut teshigidan ipni chiqazib qo'yilgani kabi, albatta, bir qo'limni tobutdan chiqazib qo'ying. Toki xaloyiq bu qo'lga hayrat ko'zi bilan emas, balki ibrat ko'zi bilan boqib, "Bu panjalar saf tortib, yer yuzini o'z qo'lga olgan edi,

mana endi bu qo'llar dunyodan shol kishining qo'liday quruq, chinorning yaproqsiz butog'iday bo'm-bo'sh ketayotir!" desinlar. Bu hol odamlar uchun ibrat maktabi bo'lib, dunyoni egallash mashg'ulotidan qo'llarini tortsinlar".

Navoiyning ulug'ligi – inson taqdiridagi eng kichik voqea hodisalarni ham katta ibrat sabog'i, hikmat darsi sifatida o'quvchiga yetkazolganidadir. Xalq orasida "Chor devon" deb nomlangan shoirning barcha turkiy she'rlarini o'z ichiga olgan "Xazoyin-ul maoniy" ("Ma'nolar xazinasi") she'riy asari ham bolalik ajoyibotlari, yigitlik sarguzashtlari, o'rta yosh voqeliklari, keksalik hikmatlarining o'ziga xos tasvirlaridan iborat edi.

Ota-ona inson hayotining charog'boni ekanini shoirning:

Boshni fido ayla ato qoshig'a,

Jismni qil sadqa ano boshig'a...[3, 5-b].

Satrlarida anglasak, ma'naviy barkamollikning timsoli bo'lmish, ota-onadan keyin o'zimizni qarzidor hisoblaganimiz ustoz hurmatini quyidagi satrlarda ko'ramiz:

Haq yo'linda kim senga bir harf o'qitmish ranj ila,

Aylamak bo'lmas ado aning haqqin yuz ganj ila [4, 28-b].

Alisher Navoiy inson umrini to'rt faslga taqqoslab shunday yozgan:

1. Yetti-sakkiz yoshdan yigirma yoshgacha bo'lgan davrni "bolalik chog'lari" deb atab, uni "umr fasllarining navbahori va hayot gulshanining gavhari" deb ta'riflagan hamda bu vaqtda bag'ishlangan she'rlarini "G'aroyib-us sig'ar" ("bolalik g'aroyibotlari") nomli asariga kirgizgan.

2. Yigirma yoshdan o'ttiz besh yoshgacha bo'lgan davrni "yigitlik zamoni" deb atab, uni "umrning yoz fasli va yigitlik bulog'i" deb sifatlagan. Bu davrdagi chog'larini "Navodirush shabbob" ("yigitlik nodirliklari") asarida keltirgan.

3. O'ttiz besh yoshdan qirq besh yoshgacha bo'lgan davrni "o'rta yoshli kunlar" deb qiyos qilgan. Bu davrni "umrning hazon fasli, ya'ni tiriklik chog'i" deb ta'riflaydi. Shu yosh davriga bag'ishlangan asari "Badoyil vasat" ("o'rta yoshlik go'zalliklari") deb nomlangan.

4. Qirq besh yoshdan oltmish yosh atrofigacha bo'lgan davrni “umrning qish fasli” deb atagan. “insonning odam yo'liga kirib, zamon ahli bilan xayrlashadigan vaqti” deb ta'riflaydi. Bu haqida uning “Favoid-ul kabir” (“qarilik paydolari”) deb nomlagan.

Vatanni sevmok, Vatan ravnaqi va taraqqiyotiga munosib hissa qo'shmoq Navoiy ijodining eng muhim va eng yuksak cho'qqisi hisoblanadi. Navoiy nazdida vatanni imoni bor inson ardoqlaydi va unga munosib bo'lishga harakat qiladi. Va mana shu g'oya, mana shu hikmat shoir umrining mazmunini, ijodining badiiy falsafasini belgilaydi. “G'urbatda g'arib bo'lib yurish ikkinchi do'zax hisoblanadi, vatanni sevish esa iymon nishonasidir”, – deb yozgan satrlar fikrimiz isbotidir.

Mutafakkir shoirning har bir satrida, har bir misrasida insonga mehr, yaxshilikka intilish, yiqilganni suyash, jo'mardlik va bag'rikenglik, chin insoniy fazilatlar bor bo'yi-basti bilan, teran falsafiy mushohadalarda bayon etiladi. Alisher Navoiyning “Arbain” asarida “Orangizda hech bir kimsa o'zi sevgan narsasini o'z birodariga ravo ko'rmaguncha imoni mukammal bo'lmaydi” mazmunidagi hadisni nazmda quyidagicha ifoda etadi:

Mo'min ermastur ulki imondin,

Ro'zg'orida yuz safo ko'rgay.

Toki qardoshiga ravo ko'rmas,

Har nakim o'ziga ravo ko'rgay [5, 6-b].

Xullas, Alisher Navoiy o'zbek adabiy adabiyotida yuksak badiiyatning o'z asarlari, she'rlarida aks ettirganki, bu jahon adabiyotida kamdan-kam uchraydi. Badiiyatdagi so'zlarning ko'pligi, yuksak mahorat bilan tasvirlanishi nafaqat o'zbek adabiyotida, balki jahonning bir necha adabiy muhitlarga ham o'z ta'siri o'tkazgan.

### *Foydalanilgan adabiyotlar*

1. Mirziyoyev Sh. *“Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy bog'i hududida Adiblar xiyobonini barpo etish to'g'risida”gi qarori*//*“Xalq so'zi” gazetasi* 2017-yil 18-aprel.
2. Karimov I. *Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch.* – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – 176 b.
3. Alisher Navoiy. *Ibratli hikoyatlar va xislatli hikmatlar.* – Toshkent: Sano-standart, 2016. – 520 b.
4. Alisher Navoiy. *Hikmatlar.* – Toshkent: Sharq, 2006. – 88 b.
5. Bahodir K. *Hazrat Navoiyga ehtirom.* – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2016. – 88 b.